

О'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonidagi yashil byudjetlashtirish siyosati

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

Xudoyorov Azizbek Avaz o'g'li

<https://orcid.org/009-0001-7045-4062>

Annotation

Maqolada yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida yashil byudjet siyosatining mohiyati, afzalliklari, yashil davlat siyosatiga oid milliy konsepsiylar hamda strategiyalarning muhimligi ko'rib chiqiladi. Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida barqaror amaliyotlarni qo'llash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: Yashil iqtisodiyot, yashil byudjetlashtirish, yashil o'sish, yashil iqtisodiy siyosat, yashil texnologiyalar, davlat siyosati, o'rta muddatli byudjetlashtirish, innovatsiyalar.

Jahon amaliyotida insonlar yashashi uchun qulay va yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatlardan umum atrof-muhitni muhofaza qilishni hamda iqlim o'zgarishiga moslashishni, shu jumladan yashil iqtisodiyotga o'tishni talab qilmoqda. Bu esa davlat byudjeti tizimini qayta taqsimlashni talab etadi. Shu sababli, ko'plab mamlakatlar atrof-muhit va Parij kelishuvi maqsadlari nuqtai-nazaridan barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish uchun yashil byudjetlashtirishni joriy qilmoqdalar.

Yashil byudjetlashtirish byudjet jarayoniga yashil davlat siyosati maqsadlarini kiritish uchun mo'ljallangan (ular mamlakatda atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish sohasidagi milliy konsepsiya va strategiyalar shaklida qabul qilinganligini nazarda tutadi).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-sonli

qarorining [1] qabul qilinishi mamlakatimizda aynan xalqaro hamjamiyat e'tiborida bo'lgan "Yashil byudjetlashtirish" masalalarini amalga oshirishga qaratilgan islohotlar debochasi bo'ldi.

Xususan, keyingi yillarda iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammoli masalalar mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligiga, xususan, iqtisodiy o'sish va kambag'allikni qisqartirish, ekologik va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Shundan kelib chiqib, ushbu yo'nalishda mamlakatda iqlim o'zgarishi ta'sirini kamaytirish va unga moslashish, "yashil" iqtisodiyotga o'tish choralarini jadallashtirish, "yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sish modelini targ'ib qilishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Mazkur qaror bilan "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash dasturi" qabul qilingan. Dastur quyidagi 6 ta ustuvor yo'nalishda O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiy o'sishni ta'minlash vazifalarini belgilaydi:

- tabiiy resurslardan barqaror va samarali foydalanish;
- milliy iqtisodiyotning tabiiy ofatlar va iqlim o'zgarishiga nisbatan barqarorligini mustahkamlash;
- milliy iqtisodiyot, xususan, sanoatning "yashil" va kam uglerodli rivojlanishini ta'minlash;
- innovatsiyalarini joriy etish va samarali "yashil" investitsiyalarini jalb qilish;
- barqaror va inklyuziv "yashil" urbanizatsiyani rivojlantirish;
- "yashil" iqtisodiyotga o'tish davrida katta ta'sir ostida bo'lishi mumkin bo'lgan aholi va ularning yashash joylarini qo'llab-quvvatlash.

Ta'kidlash joizki, so'nggi o'n yillikda dunyoning aksariyat mamlakatlarida byudjet jarayoniga "yashil" byudjetlashtirish vositalarini joriy etish uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlaydigan zamonaviy byudjetni boshqarish tizimlari ishlab chiqildi. Ushbu qulay muhitning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat [2]:

- strategik davlat boshqaruvi tamoyillaridan foydalanish;

- о‘rta muddatli byudjetlashtirishga o‘tish hamda о‘rta muddatli va uzoq muddatli byudjet prognozlarini ishlab chiqish;
- davlat byudjetlarini dasturiy maqsadli boshqarish va qurish metodologiyasini dastur formatida qo‘llash;
- davlat organlari, parlament tuzilmalari va fuqarolik jamiyatni institutlari o‘rtasida yaqin hamkorlikning mavjudligi hamda boshqalar.

Yashil byudjetlashtirish amaliyotini kengaytirishga qaratilgan – asoslangan byudjet qarorlarini qabul qilish barqaror rivojlanishning milliy strategik ustuvorliklariga erishish doirasida amalga oshirilayotgan byudjet siyosatining ekologik natijalarini tahlil qilish va tizimli baholashni talab qiladi.

Buning uchun quyidagi ekologik (yashil) byudjetlashtirish vositalaridan foydalanish tavsiya etiladi:

- davlat byudjeti xarajatlari ijrosining atrof-muhitni muhofaza qilishga ta’sirini baholash (shu jumladan, bioxilma-xillikni saqlash, iqlim o‘zgarishi sur’atlarini kamaytirish);
- milliy strategik rivojlanish maqsadlariga erishish doirasida, xususan, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish uchun soliq stavkalarini oshirish orqali salbiy ekologik tashqi ta’sirlar mavjud bo‘lganda cheklolar o‘rnatish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga byudjet xarajatlarining ayrim yo‘nalishlarining ta’sirini tahlil qilish maqsadida byudjet xarajatlari sharhlarini tayyorlash;
- byudjet chora-tadbirlarini ularning atrof-muhit va iqlimga ta’siri darajasi hamda xarakteriga ko‘ra belgilash.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ga a’zo davlatlar yuqoridagi tavsiyalarga amal qilgan holda allaqachon byudjet tizimini “yashillashtirish”ni boshlab yuborgan.

Yashil byudjetlashtirishga o'tgan OECD davlatlari va ularning bu boradagi byudjet siyosati [4]

t/r	Mamlakat nomi	Byudjet tizimini "yashillashtirish" darajasi va byudjet siyosati
1	Italiya, Germaniya	Moliyaviy siyosatning iqlim va atrof-muhitga ta'sirini tizimli baholash
2	Buyuk Britaniya	Kelgusi moliya yili uchun tasdiqlangan byudjetning atrof-muhit va iqlim maqsadlariga muvofiqligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan "Yashil byudjet deklaratsiyasi"ni byudjet hujjatlariga kiritish
3	Irlandiya, Kanada, Finlyandiya	Atrof-muhitni byudjetlashtirishni byudjetlashtirish jarayoniga to‘liq huquqli element sifatida kiritish
4	Norvegiya	Barqaror rivojlanish va "yashil o‘sish" masalalarini hal etishga qaratilgan choratadbirlarni byudjet siyosatiga kiritish, ushbu maqsadlarga erishish uchun soliq tushumlaridan foydalanish
5	Irlandiya	Atrof-muhit xarajatlari monitoringini byudjet hujjatlariga kiritish (masalan, chiqarilgan yashil qarz vositalarining hajmi)
6	Yangi Zelandiya	Ijtimoiy-ekologik ko‘rsatkichlar va maqsadlarning kompleks majmuasini shakllantirish hamda uni byudjet dasturlarida ko‘rib chiqish
7	Fransiya	Dunyoda birinchi "yashil" byudjetning shakllanishiga erishish

Yashil byudjetlashtirish, birinchidan, uglerod neytralligini (yashil o‘tish) qo‘llab quvvatlovchi va atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatadigan barqaror resurslardan tejamkor iqtisodiyotni shakllantirishda fiskal siyosat muhim rol o‘ynashiga asoslanadi, ikkinchidan, byudjet jarayoni neytral ma’muriy jarayon emas, balki, siyosiy jarayondir, ya’ni, davlat byudjeti jamiyatning davlat resurslari qanday taqsimlanishi bo‘yicha siyosiy tanlovini aks ettiradi. Shu ma’noda, xarajatlar qarorlari iqlim va atrof-muhitga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita, qasddan ta’sir qiladi, bu siyosat qarorlarini qabul qilishda e’tiborga olinishi kerak.

Demak, yashil byudjetlashtirish – bu hukumatning aniq yashil maqsadlarini rag‘batlantirish va ularga erishish uchun byudjet tizimidan foydalanish hamda eng yaxshi natijalarga erishish uchun tegishli dasturlarni shakllantirishni o‘z ichiga oladi [3].

O‘z-o‘zidan yashil byudjetlashtirish mavjud siyosatlarni o‘zgartirmaydi, bu qaror qabul qiluvchilarga byudjet siyosatining umum atrof-muhit va iqlimga ta’siri haqida aniqroq tushuncha beradi, bu ularga milliy va xalqaro majburiyatlarni bajarish uchun resurslarni taqsimlashni optimallashtirish bo‘yicha ko‘proq asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Qoidaga ko‘ra, byudjet xarajatlari iqlim o‘zgarishiga, atrof-muhitning ifloslanishiga qarshi kurashish, havo sifatini yaxshilash, halokatli tabiat hodisalari xavfining oldini olish, suv resurslarini boshqarish, bioxilma-xillik va tabiiy resurs salohiyatini saqlash hamda tiklash kabi tadbirlarni moliyalashtirish uchun baholanadi.

Xulosa qilib aytganda, soliq va soliqdan tashqari byudjet daromadlari nuqtai nazaridan yashil byudjetlashtirish vositalarini tahlil qilish lozim. Ya’ni, davlat byudjetining daromad qismiga nisbatan ham yashillashtirish tamoyilidan foydalanish masalalarini o‘rganish va soliq siyosatining atrof-muhitga ijobiylarini salbiy ta’sirini baholash maqsadga muvofiqli.

Bundan tashqari, toza mahsulotlar va yoqilg‘ilarni tadqiq qilish hamda ishlab chiqishni rag‘batlantirish uchun ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar bo‘yicha soliq imtiyozlaridan foydalanish samaradorligi, shuningdek, qazib olinadigan yoqilg‘i

energiyasi ishlab chiqarishni iste'molchi yoki chakana sotuvchiga soliqqa tortish muammolari va boshqa shu kabi masalalarni ham o'rganish orqali byudjetni yashillashtirish chora-tadbirlarini belgilash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-sonli qarori.
2. Афанасев М.П., Шаш Н.Н. Первый в мире «Зелений» государственный бюджет // Журнал Научные труды: Институт народнохозяйственного прогнозирования РАН, 2021. 344-345 с.
3. Виноградова Т.И. Инструментарий зеленого бюджетирования и практический опыт его использования // Финансовый журнал. №4, 2023. 85 с.
4. <https://www.oecd.org/-environment/green-budgeting/>